

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBЕК

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234

TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA

Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli.....240

SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi.....254

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish orqali talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish.....261

SADIKOVA MUSLIMA ALISHER KIZI

Implementation of international standards in the corporate governance system of joint-stock companies of Uzbekistan.....270





XAMDAMOV SARDOR FARMON O'G'LI

Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari.....276

SHAMSIDINOVA ZILOLAXON MAXMUDJON QIZI, MITILLAYEV IBROHIMJON

Diversifikatsiyalanayotgan bank resurslarida likvidlikni boshqarish.....281

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Ta'lim – moliyaviy savodxonlikni oshirishning asosiy vositasi sifatida: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....290

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish.....299

ТЛЕУМУРАТОВА БАХАДИРА ГЕНЖЕМУРАТОВИЧА

Развитие и повышение эффективности сферы услуг (на примере Республики Каракалпакстан).....314

ISOQOV HASAN ABDUXALIMOVICH

Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....324

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar dinamikasini iqtisodiy prognozlash.....335

G'ULOMOVA SHAXLO BAXTIYOR QIZI

Improving strategic and operational management of construction projects in uzbekistan: a conceptual adaptation of a hybrid model.....348

IMOMJON KHAMIDOV

Public perceptions of environmental risks and willingness to pay for environmental protection: evidence from Uzbekistan and Central Asia.....355

ШУКУРОВА ШАХЗОДА ДЖАЛОЛОВНА

Влияние инфляционных процессов на развитие внешней торговли Республики Узбекистан.....365

ABDILXATOV ULUG'BEK ABDULQUDDUS O'G'LI

O'zbekiston bank tizimida islom investitsiya mahsulotlarini joriy etishning korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'siri.....375

ESHTEMIROVA MA'RIFAT AKRAM QIZI

Digital transformation of the banking sector and financial inclusion in Uzbekistan.....383

JUMAQULOV TEMUR

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tannarxini kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....391

RAXMATOVA JO'RAXONPOSHSHO QAXRAMON QIZI

Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyati: nazariy asoslari va boshqaruv mexanizmi.....397

TASHPULATOVA MUNIRAXON MAHMUDOVNA

Korxonalarda risk boshqaruvi orqali xodimlar salohiyatidan samarali foydalanishni baholash usullari va modellari.....405





JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agroteknologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВА

Оптималь суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 дона чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibril modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISHNING ZARURIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning iqtisodiy mazmuni, zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Investitsiyalarning sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, sanoat tarmoqlarida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsiya resurslarini ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, sanoat tarmoqlari, investitsiya samaradorligi, sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanish, ishlab chiqarish samaradorligi, eksport salohiyati, barqaror rivojlanish, investitsiya muhiti.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения проанализированы экономическое содержание, необходимость и особенности использования инвестиций в развитии промышленных отраслей. Освещена роль инвестиций в модернизации промышленного производства, расширении производственных мощностей, внедрении инновационных технологий и повышении конкурентоспособности продукции. Также разработаны практические предложения и рекомендации по повышению эффективности использования инвестиций в отраслях промышленности, направлению инвестиционных ресурсов в приоритетные направления, развитию государственно-частного партнерства, широкому внедрению инновационных и цифровых технологий, совершенствованию инвестиционной политики.

Ключевые слова: инвестиции, отрасли промышленности, эффективность инвестиций, модернизация промышленности, инновационное развитие, эффективность производства, экспортный потенциал, устойчивое развитие, инвестиционная среда.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the economic content, necessity, and specific features of utilizing investments in the development of industrial sectors. The role of investments in modernizing industrial production, expanding production capacities, introducing innovative technologies, and increasing product competitiveness is highlighted. Practical proposals and recommendations have also been developed to increase the efficiency of investment utilization in industrial sectors, direct investment resources toward priority areas, develop public-private partnerships, widely implement innovative and digital technologies, and improve investment policy.

Keywords: investment, industrial sectors, investment efficiency, industrial modernization, innovative development, production efficiency, export potential, sustainable development, investment climate.

KIRISH

Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlarida sanoat tarmoqlarini samarali boshqarish hamda ularning raqobatbardoshligini oshirish har bir davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirishda investitsiyalardan oqilona foydalanish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishda investitsiyalardan





foydalanish masalasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, sanoat iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda jahon ishlab chiqarish sanoati o'sishi 2,9 foizni tashkil etgan bo'lib, bunda innovatsion texnologiyalar va investitsiyalar asosiy omil sifatida qayd etilgan[1]. Shuningdek, hisobotda sanoat tarmoqlaridagi har bir yangi ish o'rni iqtisodiyotning boshqa sohalarida yana ikkita ish o'rni yaratilishiga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Hozirgi davrda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda sanoatni modernizatsiya qilish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish hamda innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yirik investitsiya dasturlari amalga oshirilmoqda. Masalan, 2024-yilda Buyuk Britaniya davlatida o'tkazilgan xalqaro investitsiya sammiti doirasida sanoat va infratuzilma loyihalariga 63 milliard funt sterling miqdorida investitsiya jalb qilingan bo'lib, natijada qariyb 38 ming yangi ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan[2].

O'zbekistonda ham sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 885,8 trillion so'mni tashkil etib, sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'ati 106,8 foizga yetgan. Shu bilan birga, mamlakatda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 55,6 mingdan oshgan. Ishlab chiqarish tarkibida qayta ishlash sanoatining ulushi 85,1 foizni tashkil etgani sanoatni rivojlantirishda investitsiyalarning muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi[3].

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida sanoatni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Strategiyada mamlakatni yuqori daromadli davlatlar qatoriga olib chiqish, sanoatni modernizatsiya qilish, investitsiyalar hajmini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish asosiy maqsadlardan biri etib ko'rsatilgan.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq 2030-yilgacha quyidagi asosiy sanoat va investitsion maqsadlarga erishish rejalashtirilgan. Jumladan, mamlakat yalpi ichki mahsulotini 160 milliard AQSh dollariga yetkazish, iqtisodiyotga jami 250 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilish, asosiy kapitalga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini har yili o'rtacha 7 foizga oshirib borish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini keskin kengaytirish, yuqori texnologiyali va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish vazifalari belgilangan[4].

Sanoatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida innovatsion va texnologik ishlab chiqarishni kengaytirish muhim hisoblanadi. Xususan, metallurgiya, kimyo, elektrotexnika, avtomobilsozlik, farmatsevtika va qurilish materiallari sanoatini modernizatsiya qilish orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish zarur bo'ladi. Shu bilan





birga, mineral xomashyo resurslaridan samarali foydalanish va qayta ishlash darajasini oshirish vazifalari ham strategik ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi investitsiya siyosatining samaradorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda korxonalarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar investitsiyalar hajmi bilan bir qatorda ularning sifati, yo'naltirilishi va institutsional muhitning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratmoqda.

Hazwan Haini va Pauline Tan (2022) sanoat darajasidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilib, ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilgan investitsiyalar xizmat ko'rsatish sektoriga nisbatan yuqoriroq iqtisodiy samara berishini isbotlagan. Mualliflar institutsional sifat, ta'lim darajasi va tashqi savdo ochiqligi investitsiyalar samaradorligini sezilarli oshirishini qayd etganlar. Ushbu tadqiqot sanoat rivojlanishida investitsiyalarni faqat moliyaviy resurs emas, balki institutsional islohotlar bilan uzviy bog'liq omil sifatida baholaydi[5].

Magbondé, Thiam va Konté (2024) rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalar hamda ichki investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib, kuchli institutlar mavjud bo'lgan davlatlarda xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalarni siqib chiqarmasdan, aksincha ularni rag'batlantirishini aniqlagan. Tadqiqot natijalari investitsiya siyosatini ishlab chiqishda institutsional sifat va biznes muhitini yaxshilash ustuvor vazifa ekanligini ko'rsatadi[6].

Li va hammualliflar (2025) moliyaviy texnologiyalar (FinTech) sanoat rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilib, raqamli moliyalashtirish vositalari korxonalarning moliyaviy cheklovlarini kamaytirishi, innovatsion faoliyatni jadallashtirishi hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning rivojlanishiga xizmat qilishini empirik jihatdan asoslab bergan. Tadqiqot 266 ta shahar ma'lumotlari asosida olib borilgan bo'lib, FinTech sanoatni rivojlantirishning yangi investitsion mexanizmi sifatida baholangan[7].

Xu, Kurbanova va Liu (2025) O'zbekiston misolida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etganlar[8]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xorijiy investitsiyalar o'z-o'zidan innovatsion rivojlanishni ta'minlamaydi, biroq ilmiy-tadqiqot faoliyati (R&D), institutsional sifat va tashqi savdo ochiqligi bilan uyg'unlashganda texnologik yangilanishning muhim omiliga aylanadi. Bu natijalar O'zbekiston sanoatini modernizatsiya qilishda kompleks investitsiya siyosatini yuritish zarurligini ko'rsatadi.

Amoah, Alagidede va Sare (2025) Afrika davlatlari misolida xorijiy investitsiyalarning sanoatlashtirish jarayoniga ta'sirini baholab, FDI oqimlari sanoatlashtirish darajasini oshirishini, ayniqsa tashqi savdo ochiqligi yuqori





bo'lgan mamlakatlarda bu ta'sir yanada kuchli ekanligini aniqlaganlar. Tadqiqot investitsiyalar samaradorligini oshirishda xalqaro iqtisodiy integratsiyaning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi[9].

Shuningdek, Hojikulova (2025) tomonidan O'zbekistonning Surxondaryo viloyati sanoati misolida olib borilgan ekonometrik tadqiqot investitsiyalar hajmi bilan sanoat korxonalari soni, ishlab chiqarish hajmi va hududiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasida musbat bog'liqlik mavjudligini asoslab bergan[10].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya jarayonlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish va ularning sanoat rivojlanishidagi rolini baholash ko'plab xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida muhim o'rin egallaydi. Shu bois, Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari o'rganish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish lozim bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari esa quyidagilardan iborat: uzoq muddatlilik, yuqori risk darajasi, murakkab iqtisodiy-sotsial ta'sir va strategik ahamiyatga ega bo'lishi. Sanoat loyihalari odatda uzoq muddatli qaytish davriga ega bo'lib, bu esa investitsiyalarni diqqat bilan tanlash va boshqarishni talab etadi. Shu bilan birga, investitsiyalar nafaqat moliyaviy, balki texnologik, ekologik va ijtimoiy jihatdan ham integratsiyalashgan bo'lishi kerak. Natijada, sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishda investitsiyaviy siyosatni to'g'ri shakllantirish korxona va butun tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishning hal qiluvchi omiliga aylanadi.

Keyingi yillarda sanoat va uning tarmoqlarini rivojlantirish borasida Hukumatimiz tomonidan bir qator davlat Dasturlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari qabul qilindiki, bularning barchasi respublika sanoati va uning tarmoqlari rivojlanishining muhim poydevori bo'ldi (1-jadval).

1-jadval

Keyingi yillarda respublika sanoati va uning tarmoqlarini rivojlantirish borasida qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlar

№	Meyoriy - huquqiy hujjat nomi	Hujjat turi	Hujjatning qisqacha mazmuni
1	2016 - 2020 yillarda qurilish industriyasini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari dasturi to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori	Qurilish industriyasini yanada modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta'minlash, mineral - xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash negizida eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh va import o'rnini bosadigan qurilish materiallari sanoati tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshiradigan va resurslarni tejaydigan





№	Meyoriy - huquqiy hujjat nomi	Hujjat turi	Hujjatning qisqacha mazmuni
			zamonaviy ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, buning uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish
2	2016 - 2020 yillarda meva - sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarining xomashyo bazasini yanada rivojlantirish, ularni qayta ishlashni chuqurlashtirish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish va eksport qilishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori	Xomashyo bazasini jadal rivojlantirish asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan sifatli raqobatdosh oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish hajmlarini oshirish hamda turlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi xomashyosini yanada chuqur qayta ishlash bo'yicha xorijiy investorlarni jalb qilgan holda yangi ishlab chiqarishlarni qurish va amaldagilarini modernizatsiya qilish, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha zamonaviy savdo - logistika markazlari va muzlatish quvvatlarini yaratish
3	2016 - 2020 yillarda rangli va nodir metallarni chuqur qayta ishlash negizida eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish chora - tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori	Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish, sanoatni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, rangli va nodir metallarning g'oyat boy mineral - xomashyo resurslarini yanada chuqur qayta ishlash, shu maqsadda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish asosida tashqi bozorlarda talab qilinadigan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish hajmlari hamda turlarini kengaytirish
4	2016 - 2020 yillarda uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash negizida eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish chora - tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori	Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishni davom ettirish, neft - gaz sanoatini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, boy neft, tabiiy gaz va gaz kondensati resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlash, eksportga yo'naltirilgan yuqori qo'shilgan qiymatli yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, ushbu maqsadlarda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish
5	2016 - 2020 yillarda charm - poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari dasturi to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori	Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish, charm - poyabzal sanoatini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, teri xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida eksportga yo'naltirilgan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari hamda turlarini ko'paytirish, shu maqsadda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish
6	2017 - 2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari dasturi to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori	Kelgusida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish, to'qimachilik va tikuv - trikotaj sanoatini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va jadal rivojlantirishni ta'minlash, paxta tolasi va ipak xom ashyosini chuqur qayta ishlash, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish yo'li bilan raqobatbardoshli, tashqi bozorlarda talab qilinadigan tayyor, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari va turlarini kengaytirish
7	2017 - 2021 yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori	"O'zavtosanoat" AK ishtirokchisi (aksiyador) bo'lgan avtomobil sanoatini korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, tashqi bozorlarda kuchli raqobat muhiti va valyuta siyosatini liberalizatsiya qilish sharoitlarida uning barqaror rivojlanishini ta'minlash, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda tashkilotlarning ishlab chiqarishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish
8	2017 - 2021 yillarda ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori	Ko'mir sanoatida geologiya qidiruv va kon yuzini ochish ishlarini jadallashtirish, ko'mir konlarining yangi uflarini ishlab chiqishga faol jalb etish yo'li orqali ko'mir qazib olish zaxiralari va hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan tarkibiy yangilanishlar amalga oshirish
9	2021-2025 yillarda Mahalliy yengil sanoat korxonalarining xalqaro yetkazib berish zanjirlarida ishtirokini kengaytirish hamda tashqi bozorlarda o'rnini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni	Yengil sanoat korxonalarining xalqaro yetkazib berish zanjirlariga qo'shilishini yanada qo'llab-quvvatlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorlar talablariga moslashtirish asosida eksportda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish hamda sohani diversifikatsiya qilish

Manba: www.lex.uz sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.





Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarining jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Respublikamizda ham bu borada bir qator muhim meyoriy - huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, xususan, investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalarining kafolatlari va ularning huquqlarini himoya qilish choralari to'g'risida"gi hamda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Respublikamiz sanoati va uning tarmoqlarini jadal rivojlantirishda bugungi kunda qabul qilinayotgan davlatning investitsiya dasturlari alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi - davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni qo'llab - quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo'lgan davlat tomonidan rag'batlantiriluvchi yo'nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora - tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag'larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya Dasturlarining asosiy yo'nalishlari va chora tadbirlari quyidagi 3-jadvalda o'z aksini topgan.

3-jadval

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya Dasturlarining asosiy yo'nalishlari va chora - tadbirlari[11]

Yillar	Investitsiya Dasturlarining asosiy yo'nalishlari va chora - tadbirlari
1996-1998 yillar	- iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini ta'minlash; - import o'rnini qoplash va eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha samarali choralarni amalga oshirish uchun moddiy ishlab chiqarish bazasini yaratish; - mahsulotning raqobatbardoshligini tashkil etish; - qurilish kompleksida bozor islohotlarini chuqurlashtirish.
1999-2001 yillar	- korxonalarning investitsiya faolligini oshirish va xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish; - makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun mustahkam moddiy ishlab chiqarish bazasini yaratish; - milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvini faollashtirish.
2002-2008 yillar	- ishlab chiqarishni rivojlantirish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalash, yangi ishchi o'rinlarini yaratish uchun xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish; - tayyor mahsulot va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarishda lokalizatsiya darajasini oshirish; - eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish; - O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror sur'atlarda o'sishiga erishish.
2009-2013 yillar	- yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishini ta'minlash; - keng miqyosli strategik ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish; - yangi ishchi o'rinlarini yaratish; - xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish.
2014-2016 yillar	- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirish; - ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalash.
2017-2021 yillar	- sanoat ishlab chiqarishini barqaror, jadal va mutanosib rivojlantirish; - respublika hududlarining eksport salohiyatini yanada oshirish.
2022-2026 yillar	- ishlab chiqarishni yanada modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, oziq - ovqat sanoatini barqaror rivojlantirish; - ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish; - alohida sanoat tarmoqlari rivojlanishini jadallashtirish.





Sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishda investitsiyalardan foydalanish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish jarayonlari mahsulot sifati va mehnat unumdorligini oshirish bilan bir qatorda korxonalarning eksport salohiyatini ham kuchaytiradi (2-jadval).

2-jadval

Sanoat tarmoqlarini rivojda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari

№	Zaruriyat va xususiyatlar	Mazmuni	Sanoat tarmoqlariga ta'siri
1	Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish zaruriyati	Eskirgan texnika va texnologiyalarni yangilash uchun investitsiyalar talab etiladi	Mahsulot sifati va ishlab chiqarish unumdorligi oshadi
2	Raqobatbardoshlikni oshirish	Ichki va tashqi bozorda raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarish	Eksport hajmi va korxona daromadi ortadi
3	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Zamonaviy innovatsion uskunalar va raqamli boshqaruv tizimlarini qo'llash	Resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi
4	Resurs tejamkorligini ta'minlash	Energiya va xomashyo sarfini kamaytirishga xizmat qiluvchi texnologiyalarni joriy etish	Xarajatlar kamayib, rentabellik oshadi
5	Yangi ish o'rinlarini yaratish	Investitsiya loyihalarida asosida yangi korxonalar va ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish	Bandlik darajasi oshadi
6	Hududiy sanoatni rivojlantirish	Investitsiyalarni hududlar kesimida samarali joylashtirish	Hududlar iqtisodiy salohiyati kuchayadi
7	Uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash	Investitsiyalar ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishiga xizmat qiladi	Sanoatning YAIMdagi ulushi ortadi
8	Investitsion boshqaruvning murakkabligi	Investitsiya jarayonlari katta moliyaviy resurs va strategik rejalashtirishni talab qiladi	Boshqaruv samaradorligini oshirish zarur bo'ladi
9	Yuqori risk darajasi	Investitsiya loyihalarida moliyaviy va bozor risklari mavjud bo'ladi	Risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi
10	Kapital sig'imining yuqoriligi	Sanoat tarmoqlari katta hajmdagi investitsiyalarni talab etadi	Davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish zarurati ortadi

Investitsiyalar sanoat korxonalarida resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada korxonalarning moliyaviy barqarorligi va rentabellik darajasi oshadi. Shu bilan birga, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Biroq sanoat tarmoqlarida investitsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib, ular yuqori kapital sig'imi, uzoq muddatli moliyaviy resurslar talabi hamda investitsiya risklarining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli investitsiyalarni samarali boshqarish, risklarni baholash va investitsion qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishda investitsiyalardan oqilona





foydalanish mamlakat sanoat salohiyatini oshirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiya qilinishi hamda investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish darajasiga bog'liqdir. Shu sababli sanoat tarmoqlarini boshqarishda investitsiyalardan samarali foydalanish masalasi bugungi kunda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kuchaytirishda investitsion boshqaruv mexanizmlaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa sanoat tarmoqlarida investitsiya faoliyatining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

O'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoatning ulushi oshirish hamda uni rivojlanishini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Bunda faol investitsiya siyosatini amalga oshirish eng samarali yo'l hisoblanadi hamda uni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini keltirib o'tamiz:

- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;
- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda investitsiyalar iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik modernizatsiyani amalga oshirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Investitsiyalardan samarali foydalanish nafaqat sanoat mahsulotlari hajmini oshirishga, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, eksport salohiyatini kuchaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.





Tadqiqot natijalariga asosan, O'zbekiston sanoat tarmoqlarida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- investitsiya resurslarini yuqori texnologiyali va eksportbop ishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltirish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va xususiy kapital ishtirokini rag'batlantirish;
- investitsiya loyihalarini tanlash va monitoring qilishda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- hududlarning sanoat salohiyati va resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib differensial investitsiya siyosatini shakllantirish;
- ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim tashkilotlari va sanoat korxonalari o'rtasidagi innovatsion hamkorlikni rivojlantirish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalardan samarali foydalanish sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini jadallashtirish va milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishning strategik omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois investitsiya siyosatini takomillashtirishda moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, institutsional muhitni yanada yaxshilash hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Mazkur yondashuv sanoat tarmoqlarining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlash, iqtisodiyotning diversifikatsiyasini chuqurlashtirish va O'zbekistonning global qiymat zanjirlaridagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.unido.org/news/> UNIDO Industrial Development Report 2024
2. <https://www.reddit.com/r/europe/>
3. <https://www.uzdaily.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "«O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son).
5. Haini, H., & Tan, P. S. (2022). Re-examining the impact of sectoral- and industrial-level foreign direct investment on economic growth: Does institutional quality, education levels and trade openness matter? Australian Economic Papers, 61(3), 410–435. <https://doi.org/10.1111/1467-8454.12253>
6. Magbondé, G., Thiam, D. R., & Konté, M. A. (2024). Foreign direct investment and domestic investment in developing countries: The role of institutional quality. International Economics and Economic Policy. <https://doi.org/10.1057/s41294-024-00239-9>.





7. Li, X., Zhang, Y., Chen, H., et al. (2025). FinTech development and industrial upgrading: Evidence from Chinese cities. *Finance Research Letters*, 67, 106671. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2024.106671>.
8. Xu, Y., Kurbanova, S., & Liu, Z. (2025). Foreign direct investment, technological innovation and industrial development: Evidence from Uzbekistan. *Technology Analysis & Strategic Management*. <https://doi.org/10.1080/09537325.2025.2550011>.
9. Amoah, J. O., Alagidede, I. P., & Sare, Y. A. (2025). Foreign direct investment and industrialization in Africa: The moderating role of trade openness. *SAGE Open*, 15(1). <https://doi.org/10.1177/21582440251400555>.
10. Hojikulova, F. D. (2025). Econometric analysis of the impact of investment on industrial development in Uzbekistan (Surkhandarya region case). *Applied Computational Economics Open*, 10. <https://doi.org/10.21070/acopen.10.2025.10633>.
11. Vaxabov A.V., Xajibakiyev SH.X., Muminov N.G. Xorijiy investisiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: "Moliya", 2010. 330 b., manba ma'lumotlariga qo'shimchalar kiritilgan.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**